Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sinhni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turoпова Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостепримства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikramovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	



YASHIL MOLIYALASHTIRISH VA UNING YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti "Mutaxassislik,
ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar"
kafedrası katta o'qituvchisi
tuldashec2311@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida moliyalashtirish tizimini shakllantirish, boshqarish va rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, yashil moliyalashtirish vositalari, ularning qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishdagi roli, xalqaro va milliy tajribalar hamda amaliyotlar o'rganilgan. Maqolada yashil moliyalashtirishda yuzaga kelayotgan muammolar, imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinib, ushbu sohani takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil aksiyalar, moliyaviy vositalar, ekologik samaradorlik, davlat-xususiy sherikchilik.

Abstract: This article analyzes the economic and organizational-legal foundations of forming, managing, and developing a green financing system in Uzbekistan's agricultural sector based on the principles of green economy. The study explores green financing instruments, their role in ensuring sustainable agricultural development, and examines both international and national practices. The article identifies key issues, opportunities, and promising directions for green financing and offers practical recommendations for its improvement. The research results have scientific and practical significance for enhancing agricultural financing mechanisms within the framework of Uzbekistan's transition to a green economy.

Key words: green economy, green financing, sustainable development, green investments, green bonds, green loans, green shares, financial instruments, environmental efficiency, public-private partnership.

Аннотация: В статье проанализированы экономические и организационно-правовые основы формирования, управления и развития системы зеленого финансирования в сельском хозяйстве Узбекистана на принципах зеленой экономики. В частности, рассмотрены инструменты зеленого финансирования, их роль в устойчивом развитии сельского хозяйства, изучен международный и национальный опыт. Выделены актуальные проблемы, возможности и перспективные направления зеленого финансирования, разработаны практические рекомендации по его совершенствованию. Результаты исследования имеют научную и практическую значимость для совершенствования механизмов финансирования сельского хозяйства в процессе перехода к зеленой экономике в Узбекистане.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленое финансирование, устойчивое развитие, зеленые инвестиции, зеленые облигации, зеленые кредиты, зеленые акции, финансовые инструменты, экологическая эффективность, государственно-частное партнерство.



KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o'z iqtisodiyotlarini barqaror rivojlantirish va kelajak avlodlar uchun iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni muhim strategik yo'nalish sifatida belgilab olmoqdalar. Shu sababli ushbu sohani ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish va o'rganilgan natijalarni iqtisodiyotni boshqarish amaliyotiga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada turli ilmiy markazlar, konsalting kompaniyalari va moliyaviy institutlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va yashil iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari, istiqbollari hamda uni moliyalashtirish mexanizmlariga oid konseptual qarashlar shakllantirilmoqda.

So'nggi yillarda "yashil moliyalashtirish" tushunchasi xalqaro iqtisodiy atamalar tizimiga keng joriy qilinib, u "yashil investitsiyalar", "yashil moliya" kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda ishlatilmoqda. Masalan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxassisleri ushbu tushunchalarni iqtisodiy atamalar sifatida tasdiqlab, yashil moliyalashtirishni keng qamrovli iqtisodiy mexanizm deb baholamoqdalar. PricewaterhouseCoopers konsalting kompaniyasi ekspertlari esa yashil moliyalashtirish ko'proq bank sektori faoliyati doirasida shakllanayotganini ta'kidlamogda. Ularning fikricha, yashil moliyalashtirish – bu banklar tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirishda qo'llaniladigan moliyaviy mahsulotlar to'plami bo'lib, kredit ajratishdan boshlab, qarzni qaytarishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, yashil moliyalashtirish atamasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat chiqindilarini kamaytirish, suv resurslari ifloslanishini oldini olish, bioturli xillikni saqlab qolish kabi loyihalarni moliyalashtirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil moliya va yashil moliyalashtirish tushunchalari ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan investitsiyalar, kreditlar, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy mahsulotlar orqali atrof-muhitni himoya qilish, iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli moliyaviy faoliyat turini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son¹ qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son² Farmonida yashil iqtisodiyotga o'tish doirasida moliyaviy ta'minot mexanizmlarini mustahkamlash alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu tashabbuslar doirasida xalqaro tajribalardan keng foydalanish, yashil moliyalashtirish vositalarini joriy etish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va global ekologik muammolarni hal qilishda O'zbekistonning faol ishtirokini ta'minlash zarurati ortib bormoqda.

Yashil obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish bugungi kunda global miqyosda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib, O'zbekiston uchun ham iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil moliyalashtirish va uning iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni xalqaro miqyosda keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Xususan, Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan yashil moliyalashtirish keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etilib, u ekologik toza loyihalar, sanoat chiqindilarini kamaytirish, bioturli xillikni saqlash va iqlim o'zgarishiga moslashish kabi jarayonlarni moliyalashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Gunnar Friede, Timo Busch va Alexander Bassen tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda esa yashil moliyalashtirish va ESG ko'rsatkichlarining korporativ moliyaviy samaradorlikka ijobiy ta'siri isbotlangan bo'lib, ushbu sohada 2000 dan ortiq ilmiy ishlar umumlashtirilgan. Ularning tadqiqotlari natijasida, yashil investitsiyalar va yashil obligatsiyalar global obligatsiyalar bozorida barqaror moliyaviy samaradorlik bilan ajralib turishi qayd etilgan.

Bloomberg New Energy Finance hamda PricewaterhouseCoopers kompaniyalari ekspertlari yashil moliyalashtirishni asosan bank sektori faoliyati bilan bog'lab, uni ekologik maqsadlarga xizmat qiluvchi kreditlar, obligatsiyalar va aksiyalar orqali amalga oshirish zarurligini ta'kidlab kelmoqdalar.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4539502>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida: <https://lex.uz/docs/-5841063>



Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari, Parij kelishuvi va boshqa global hujjatlar esa yashil moliyalashtirishni iqlim o'zgarishining oldini olish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim instrument sifatida belgilab bermoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil moliyalashtirishning iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslarini aniqlashda tizimli tahlil, hujjatlar va normativ-ma'lumotlar tahlili usullaridan foydalanildi. Xalqaro tajribalar, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, statistik ma'lumotlar hamda mavjud ilmiy manbalar asosida solishtirma va kontent tahlil usuli orqali natijalar umumlashtirildi hamda takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston "yashil" moliyalashtirish vositalaridan "yashil" kreditlar va obligatsiyalar ko'rinishida 2021-yil iyul oyida London fond birjasiga 2,5 trillion so'm qiymatida 3 yillik muddatga davlat obligatsiyalarini joylashtirdi. Evrobondlar AQSh dollari uchun 3,9 foiz kuponga 10 yil muddatga va so'm uchun 14 foiz kuponga 3 yil muddatga chiqarildi. Ushbu obligatsiyalar orqali olingan mablag'lar 9 ta aniq milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ko'zda tutuvchi tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi. Asosiy qismi aynan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda maqsad qilib olingan rejalarni amalga oshirish uchun safarbar etilishi nazarda tutilgan.

Xususan, butun dunyo aholisini o'z ichiga olgan muammolarni hal etishga qaratilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida 17 ta o'zaro bog'liq global maqsadlarni moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Mazkur maqsadlarning aksariyati ekologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'lar yashil loyihalarni amalga oshirish, sog'liqni saqlash, ta'lim, suv ta'minoti va irrigatsiya hamda jamoat transporti kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Belgilangan yashil loyihalarni amalga oshirishda bevosita muqobil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish nazarda tutilgan.

O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrda BRM sohasida 16 ta milliy maqsadni belgilab olgan. Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar global miqyosda qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilarning tinchlik va farovonlikdan bahramand bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Jahon banki tomonidan 2008-yilda chiqarilgan birinchi yashil obligatsiyadan boshlab, ekologik va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi yashil obligatsiyalarga investitsiyalar deyarli 4 trillion dollarga yetdi. Ushbu o'sish sezilarli bo'lsa-da, u 100 trillion dollarlik global obligatsiyalar bozorining bir qismini tashkil etadi xolos.

Bugungi kunda yashil obligatsiyalar milliy bozorini shakllantirish va xalqaro bozorga chiqish O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy amaliyot tahliliga ko'ra, yashil obligatsiyalar va qarzlar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning maxsus vositasi bo'lib, ular emitent va investorlarning mulkiy manfaatlarini, shuningdek, jamiyat va davlatning ekologik ehtiyojlarini qondirishda samarali instrument sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu instrumentlar orqali energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, tabiiy resurslar va yer boshqaruvi, toza transport, oqava suv va suv resurslarini boshqarish, yashil qurilish, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, yashil investitsiya fondlari, uglerod birjalari, aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar, serdaromad kompaniyalar va yashil banklar kabi loyihalarni moliyalashtirish mumkin.

O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida jalb qilingan davlat tashqi qarzlarini samarali taqsimlash va yashil loyihalarning daromadlilik stavkalarini oshirish siyosatini joriy etmoqda. 2022-yil yanvar-sentabr oylaridagi bitimlarga muvofiq, "Yashil iqtisodiyotga o'tish" loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan 150 million yevro qiymatida 20 yillik muddatga ajratildi. Mazkur loyihani amalga oshirishda tashabbuskor ijrochi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyasida davlat byudjeti xarajatlarini barqaror rivojlantirish maqsadida "yashil byudjet" tamoyillarini joriy qilish bo'yicha choralar belgilangan. Bunga ko'ra, byudjetdan moliyalashtirilayotgan tadbirlarning iqlim o'zgarishi, ekologik holat hamda havoga chiqariladigan zararli gazlarning kamayishiga ta'siri nuqtai nazaridan tasniflash amalga oshiriladi.

Fransiya tajribasiga asoslangan holda, "yashil byudjet" tizimini joriy qilish uchun bir qator maxsus choralar rejalashtirilgan bo'lib, ular orasida "yashil byudjet" metodologiyasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, yashil davlat xaridlari standartlari va indikatorlari bo'yicha treninglar o'tkazish, yashil soliq siyosati bo'yicha mahalliy mutaxassislarni tayyorlash, yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini joriy etishda doimiy maslahat xizmatini yo'lga qo'yish kabi tadbirlar mavjud.



Iqlim obligatsiyalari bozori ma'lumotlariga ko'ra, yashil obligatsiyalar bozori 2021-yilda 517,4 milliard dollarga yetib, 10 yillik o'sish tendensiyasini saqlab qolishga erishdi. Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va yashil sukuq kabi investitsiyalar 2020-yilda 297 milliard dollarga, 2021-yil 3-choragi oxirida esa 354 milliard dollarga yetib, avvalgi rekordlarni yangiladi. Prognozlariga ko'ra, global yashil investitsiyalar 2022-yil oxirigacha 1 trillion dollarga, 2025-yilgacha esa yashil obligatsiyalar uchun 5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda.

Islomiy moliya instrumentlari doirasida yashil sukuq ham yangi moliyaviy vosita sifatida rivojlanib, qayta tiklanadigan energiya va boshqa ekologik loyihalarga islom moliyasi qoidalariga muvofiq investitsiyalar kiritish imkonini bermoqda. Yashil sukuq bozori 2017-yildan boshlab rivojlana boshlagan bo'lib, dastlabki sukuqlar Malyaziya 2017-yil iyul oyida, Indoneziya 2018-yil mart oyida chiqarilgan.

Yashil moliyalashtirish qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning muhim omili bo'lib, ushbu sohada ham zamonaviy moliyaviy instrumentlar joriy etilmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorida yashil moliyalashtirish vositalarini kengaytirish va bu orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Yashil moliyalashtirish instrumentlari tarkibiga 2017-yildan boshlab dunyo mamlakatlari moliya bozorida yangi instrument sifatida shakllanib, sezilarli darajada o'rin egallagan islomiy qimmatli qog'ozi – sukuqdan foydalanish talabi ham tobora ortib bormoqda. Yashil sukuq – bu qayta tiklanadigan energiya va boshqa ekologik aktivlarga shariatga muvofiq investitsiyalar kiritish imkonini beruvchi moliyaviy instrument hisoblanadi. Yashil sukuq bozori yashil obligatsiyalar bozoriga nisbatan sekinroq rivojlanib, hali boshlang'ich bosqichida. Dunyodagi birinchi yashil sukuq (RM250 million) 2017-yil iyul oyida Malayziyaning qayta tiklanadigan energiya firmasi tomonidan yirik quyosh energetikasi stansiyalari qurilishini qo'llab-quvvatlash uchun emissiya qilingan. Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng yirik quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishini moliyalashtirish uchun 2018-yil oktyabr oyida alohida qayta tiklanadigan energiya firmasi tomonidan ikkinchi yashil sukuq (RM1 milliard qiymatida) chiqarildi. 2018-yil mart oyida Indoneziya o'zining birinchi suveren yashil sukuqini chiqardi va 1,25 milliard dollar kapital jalb qildi.

2016-yilda Jahon banki Global bilim va tadqiqot markazi guruhi Markaziy Osiyoning yashil moliyalashtirish dasturini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Malayziya banki va Qimmatli qog'ozlar komissiyasi bilan texnik ishchi guruhiga yashil moliyalashtirish bo'yicha bilim va tajribalardan foydalangan holda qo'shildi. Dastur dastlab Malayziya, keyin esa ASEAN mintaqasidagi yashil islom moliya bozorlarini rivojlantirish orqali yashil yoki barqaror loyihalarga investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan edi. Dastur 2017-yil 27-iyun kuni dunyodagi birinchi yashil sukuqning ishga tushirilishini qo'llab-quvvatladi. Sukuq yashil islom obligatsiyasi bo'lib, undan tushgan mablag'lar qayta tiklanadigan energiya qurilishi kabi muayyan ekologik barqaror infratuzilma ishlab chiqarish inshootlari loyihasini moliyalashtirishga sarflanishi belgilab olingan.

Yashil va barqaror sukuq emissiyasi (AQSh dollari, million) yashil obligatsiyalarga nisbatan kam miqdorda bo'lishiga qaramay, yaqinda paydo bo'lgan moliyaviy instrument sifatida yetarli darajada loyihalarni amalga oshirish uchun chiqarilmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi davridan oldin ham yashil va barqaror sukuq 2019-yilda ikki baravardan ko'proq o'sish sur'atini ko'rsatgan edi. Pandemiya davrida ushbu sukuq emissiyalari o'zining o'sish traektoriyasini davom ettirib, 2020 va 2021-yillarda yangi rekordlarni o'rnatdi.

2017–2022-yillar kesimida yashil va barqaror sukuqlar emissiyasi bo'yicha ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, pandemiya davrigacha sezilarli darajada yashil sukuq emissiyasi amalga oshirilgan va 2019-yilda (3649 million AQSh dollari) eng ko'p miqdordagi emissiya qayd etilgan. 2020-yildan keyin ham yashil sukuq emissiya miqdori keskin kamaymagan, o'zining o'rtacha qiymat barqarorligini saqlab turgan. Ahamiyatli jihati, barqaror sukuq emissiya hajmi 2017–2019-yillar davomida yashil sukuq emissiya miqdorining o'ndan bir qismiga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich pandemiya davridan so'ng o'zgardi. Barqaror sukuq hajmi 2020 va 2022-yillarda yashil sukuq hajmiga deyarli teng miqdorda emissiya qilingan. 2021-yilda esa barqaror sukuq hajmi yashil sukuq hajmiga nisbatan 3 barobar ko'proq qiymatda emissiya qilingan va dastlabki emissiya hajmiga nisbatan rekord natijaga erishgan.

Yashil moliyalashtirish zamonaviy davrda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning strategik omili sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi global iqtisodiy tizimda nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, balki sanoat tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirishda, bandlik darajasini oshirishda va qishloq infratuzilmasini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi sharoitda hukumat va moliyaviy institutlar hamkorligida qishloq xo'jaligi sektorini moliyaviy ta'minlash tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali bu sohadagi tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikada kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mikromoliyalashtirish tizimi yaratilgan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini mikromoliyalashtirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan metodologiyasi takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar bahosining bir qismini bonus shaklida tasniflash va qo'llash amaliyoti O'zbekiston moliya tizimida hali joriy etilmagan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligi pastligi, to'lov qobiliyatining yetishmasligi ularning bank va mikromoliyaviy



xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda. Bu holat agrosanoat kompleksida narxlar disbalansining kuchayishi, davlat tomonidan belgilangan xarid narxlarining pastligi va sektorda ishlab chiqarish rentabelligining iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan orqada qolishi bilan yanada og'irlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi sektorining tabiiy va iqlimiy omillarga yuqori bog'liqligi, ishlab chiqarish jarayonining mavsumiyligi bu sohada kredit bozorining uzluksiz faoliyat yuritishini cheklaydi. Natijada, ushbu sohada davlat tomonidan subsidiya, imtiyozli kredit va grantlar shaklida to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurati yuzaga keladi. Biroq, amaliyotda davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslarning samarasizligi va kreditlarning qaytarilmaslik darajasi yuqoriligi kuzatilmoqda. Mavjud moliya institutlari esa bu jarayonlarda faqat nazoratchi roliga qolmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agar sektorni zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror doirasida, zamonaviy va energiya tejamkor texnikalarga o'tishni tezlashtirish, eskirgan qishloq xo'jaligi texnikasini yangilash va sektorning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi texnikalarini xarid qilishni lizing asosida moliyalashtirish va 2023–2024-yillarda 2,6 trillion so'm mablag' ajratish rejalashtirilgan.

Shu tariqa, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, yashil moliyalashtirishning joriy etilishi sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida tashkil etish, boshqarish va uni rivojlantirishni moliyalashtirish bilan bog'liq o'ziga xos muammolar tahlil qilindi. Jumladan, bu soha hali yangi tashkil etilib, tadbirkorlar va fermerlar hozircha yetarli darajada daromad ko'rib, foyda olish va mustaqil ravishda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, fikrimizcha, yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish jarayonida davlat va xususiy sheriklik asosida samarali tizimni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, bir tomondan, iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy asoslarni shakllantirish, ikkinchi tomondan, xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokini kengaytirish orqali zarur mablag'larni jalb etish lozim. Faqatgina ushbu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirish orqali mazkur sohadagi muammolarni hal qilish va qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
2. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yashil iqtisodiyotga o'tish doirasida yashil va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish."
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5853–son Farmoni. 2019-yil 23–oktyabr.
4. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4–oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4477–son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30–oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5863–son Farmoni.
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (Sustainable Development Goals) loyihalari hamda boshqa atrof-muhitni himoya qilishga doir xalqaro shartnomalari (Paris Agreement, 2015).
8. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG va moliyaviy ko'rsatkichlar: 2000 dan ortiq tadqiqotlardan jamlangan empirik dalillar. Journal of Sustainable Finance & Investment, 5:4, 210–233.
9. Yo'ldashev M.I., Xamdamov A.N., Yo'ldashev F.A., Qurbonov Sh.I. "Yashil iqtisodiyot". Monografiya. Toshkent: Fan ziyosi, 2024. 232 bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy veb-sayti: www.gov.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti: www.stat.uz
12. <https://www.un.org>
13. <http://www.unep.org>
14. <http://unfccc.int/resource>
15. <https://www.unenvironment.org>
16. <https://sustainabledevelopment.un.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
